



Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish tendensiyalari

**Toshpo'latov Alisher
Kenjayevich**

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda xorijiy investitsiyalarning kapital yetishmovchiligi sharoitida muhim moliyaviy manba sifatidagi roli ochib berilib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va portfel investitsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda makroiqtisodiy ta'siri solishtirma tarzda yoritiladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish tendensiyalari hamda ularning iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti.

Abstract: This study reveals the role of foreign investment as an important financial source in the context of capital shortages, comparing the characteristics of foreign direct investment and portfolio investment, as well as their macroeconomic impact. It also analyzes trends in attracting foreign investment into the national economy and its impact on economic growth and sustainable development.

Keywords: foreign investment, foreign direct investment, portfolio investment, investment policy, investment climate.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiy integratsiyaning kengayishi hamda xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar natijasida kapital, texnologiya va investitsion resurslarning xalqaro harakati faollashib, milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yanada mustahkamlanmoqda. Bu holat esa xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi strategik ahamiyatini oshirib, ularni jalb etish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, uning tarkibiy tuzilmasini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish ko'p jihatdan samarali investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Xususan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda eksport hajmini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. UNCTADning World Investment

Report 2025 hisobotiga ko'ra, global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimi 2024-yilda pasayishda davom etdi [11].

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ochiq iqtisodiyot tamoyillariga asoslanib, investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Shu jihatdan, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish va ulardan oqilona foydalanish milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar “chet el investorlarining daromad olish va kapital qiymatini oshirish maqsadida boshqa mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltiradigan moliyaviy, moddiy va nomoddiy aktivlari majmui” sifatida talqin etiladi. Ushbu investitsiyalar tarkibiga nafaqat pul mablag'lari, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, intellektual mulk obyektlari va innovatsion yechimlar ham kiradi. Shu jihatdan xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, texnologik yangilanishi va innovatsion rivojlanishida kompleks ta'sirga ega omil hisoblanadi.

J.Dunningning “eklektik paradigma” (OLI modeli)ga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga egalik (Ownership), joylashuv (Location) va ichkilashtirish (Internalization) ustunliklari orqali kirib kelib, texnologiya transferi, boshqaruv tajribasi va innovatsiyalarni olib kiradi [1]. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

P.Krugman xalqaro savdo va investitsiyalar o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlab, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish hamda global integratsiyani kuchaytirishda muhim omil ekanligini asoslab beradi [2]. J.Sachs esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar iqtisodiy islohotlarni jadallashtiruvchi va infratuzilmani rivojlantiruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qilishini qayd etadi [3].

Shuningdek, D. North institutlar nazariyasiga ko'ra, investitsiya oqimlari samaradorligi mamlakatdagi institutsional muhit sifati, ya'ni huquqiy tizim, mulk huquqi himoyasi va shartnomalarning bajarilishi darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, barqaror institutsional muhit xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim sharti hisoblanadi [7].

R. Vernonning “mahsulot hayotiy sikli nazariyasi”ga ko'ra, kompaniyalar ishlab chiqarishni arzon resurslar va qulay bozor sharoitlariga ega mamlakatlarga ko'chirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini shakllantiradi [8]. Bu esa global ishlab chiqarish zanjirlarining kengayishiga olib keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda S. Sugahara va B. Ochilov investitsiya muhitini shakllantirishda infratuzilmaning rivojlanganligi, fiskal siyosat barqarorligi, huquqiy kafolatlar va investitsiya loyihalarining rentabelligi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi [4]. Ushbu omillar uyg'unligi investitsion jozibadorlikni belgilaydi.

Mollah Aminul Islam va hamkorlarining tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar moliyaviy bozorlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xususan qimmatli qog'ozlar bozori likvidligini oshirishi va moliyaviy vositachilik tizimini chuqurlashtirishi asoslab berilgan [5].

Hududiy jihatdan esa G.M. Galeeva va E.N. Kadeeva xorijiy investitsiyalarni jalb etishda bozor sig'imi va resurslarga kirish imkoniyati asosiy determinantlar ekanligini qayd etadi. Shu bilan birga, ular investitsiyalarning notekis taqsimlanishi hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkinligini ham ta'kidlaydi [6].

Bundan tashqari, D. Rodrik fikriga ko'ra, iqtisodiy globallashtirish sharoitida davlatning faol iqtisodiy siyosati va strategik boshqaruvi xorijiy investitsiyalar samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir [9]. R. Solow esa investitsiyalar iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli manbai bo'lib, kapital jamg'arilishi va texnologik taraqqiyot bilan bevosita bog'liqligini asoslab beradi [10].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning nafaqat moliyaviy manbai, balki texnologik, institutsional va innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi kompleks omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni jalb etish va samarali boshqarish iqtisodiy siyosatning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli ravishda milliy iqtisodiyot uchun tashqi moliyalashtirish manbai sifatida namoyon bo'ladi va kapital yetishmovchiligi sharoitida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi. Biroq xorijiy kapital oqimlarining iqtisodiy mazmuni va makroiqtisodiy ta'siri bir xil emas. Xususan, xalqaro kreditlar va qarz mablag'lari qaytarish majburiyati bilan bog'liq bo'lib, tashqi qarz yukining ortishi, to'lov balansiga bosim va fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarni funksional xususiyatlariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) va portfel investitsiyalariga ajratish muhim metodologik yondashuv hisoblanadi.

TTXI korxonada ustidan uzoq muddatli iqtisodiy manfaatdorlik va boshqaruv nazoratini (odatda 10% va undan ortiq ulush) nazarda tutadi. U nafaqat moliyaviy resurslarni, balki texnologiya transferi, boshqaruv tajribasi, innovatsion yechimlar va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini ham olib kiradi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari oshadi.

Portfel investitsiyalar esa asosan qisqa va o'rta muddatli moliyaviy daromad olishga qaratilgan bo'lib, ular aksiyalar va obligatsiyalar kabi qimmatli qog'ozlarga yo'naltiriladi. Bunda investor korxonada boshqaruvida ishtirok etmaydi, asosiy maqsad kapital qiymati va dividend daromadini oshirish hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda, xususan endogen o'sish modelida, xorijiy investitsiyalar inson kapitali, innovatsiya va texnologik taraqqiyotni rag'batlantiruvchi omil sifatida qaraladi. Bunda investitsiya samaradorligi institutsional muhit sifati, huquqiy barqarorlik va mulk huquqi himoyasiga bevosita bog'liqdir.

1-jadval

TTXI va portfel investitsiyalarining solishtirma jadvali

Mezoni	TTXI	Portfel investitsiyalar
Maqsad	Uzoq muddatli boshqaruv va strategik nazorat	Qisqa/orta muddatli moliyaviy daromad
Korxonada boshqaruvi	Investor bevosita ishtirok etadi	Boshqaruvda ishtirok etmaydi
Kapital ulushi	Odatda 10% va undan yuqori	Odatda kichik ulush
Ta'sir turi	Texnologiya, menejment va innovatsiya transferi	Asosan moliyaviy bozor orqali ta'sir
Barqarorlik	Yuqori barqaror va uzoq muddatli	Tez o'zgaruvchan va beqaror
Xavf darajasi	Nisbatan pastroq	Yuqoriroq (bozor tebranishlariga bog'liq)
Iqtisodiy ta'sir	Ishlab chiqarish va real sektorni rivojlantiradi	Moliyaviy bozor likvidligini oshiradi
Kapital chiqib ketishi	Sekin va cheklangan	Tez va yuqori ehtimolli

TTXI va portfel investitsiyalar o'zining iqtisodiy mazmuni, maqsadi va ta'sir mexanizmi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. TTXI asosan uzoq muddatli strategik maqsadlarni ko'zlab, investor tomonidan korxonada faoliyatini boshqarishda bevosita ishtirok etishni nazarda tutadi. U 10 foiz va undan ortiq kapital ulushi orqali ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, texnologiya, boshqaruv tajribasi va innovatsiyalar transferi orqali real sektor rivojiga xizmat qiladi. Shu sababli TTXI nisbatan barqaror bo'lib, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli omili sifatida baholanadi.

Portfel investitsiyalar esa qisqa yoki o'rta muddatli moliyaviy daromad olishga yo'naltirilgan bo'lib, investor korxonada boshqaruvida ishtirok etmaydi va odatda kichik kapital ulushi bilan cheklanadi. Ular asosan qimmatli qog'ozlar bozori orqali amalga oshirilib, moliyaviy bozor likvidligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq portfel investitsiyalar bozor tebranishlariga sezgir bo'lib, kapitalning tez kirib kelishi va chiqib ketishi bilan xarakterlanadi, bu esa ularni nisbatan beqaror investitsiya turi sifatida tavsiflaydi. TTXI real sektorni rivojlantiruvchi strategik investitsiya shakli bo'lsa, portfel investitsiyalar moliyaviy bozorlar likvidligini oshiruvchi tezkor kapital oqimi hisoblanadi. Shu bois milliy iqtisodiyotda ushbu ikki investitsiya turini muvozanatli jalb etish muhim ahamiyatga ega.

2024-yilda jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimi 11 foizga kamayib, 1,5 trillion dollarni tashkil etdi. Biroq ushbu umumiy ko'rsatkich turli iqtisodiyotlar o'rtasidagi sezilarli farqlarni to'liq aks ettirmaydi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda FDI oqimi 22 foizga qisqargan bo'lsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda bu ko'rsatkich nisbatan barqaror saqlanib qolgan.

Pasayishning asosiy sabablari sifatida Yevropaga yo'naltirilgan investitsiyalarning 58 foizga keskin kamayishi, Xitoyga kirib kelayotgan FDI hajmining 29 foizga tushishi hamda Janubiy Amerikaga investitsiyalar 18 foizga qisqarishi ko'rsatib o'tiladi. Bu holat global investitsiya oqimlarida geoiqtisodiy va institutsional omillarning kuchaygan ta'sirini ifodalaydi.

2-jadval

Mintaqalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati

[11]

Hudud	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (foizda)
Jami	1673	1493	-10,8
<i>Rivojlangan mamlakatlar</i>	807	626	-22,4
Yevropa	439	182	-58,5
Shimoliy Amerika	280	343	22,5
Boshqa rivojlangan mamlakatlar	88	101	14,8
<i>Rivojlanayotgan mamlakatlar</i>	866	867	0,1
Afrika	56	98	75,0
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	188	164	-12,8
Osiyo	622	605	-2,7

Shu bilan birga, ayrim hududlarda ijobiy dinamika kuzatildi. Shimoliy Amerikada FDI 23 foizga oshib, AQShda 20 foizlik o'sish qayd etildi. Bu asosan yirik qo'shilish va sotib olish (M&A) operatsiyalari hamda yuqori texnologiyalar va yashil energetika sohaslariga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bog'liqdir. Rivojlanayotgan mintaqalar ichida ASEAN 10 foizlik, Markaziy Amerika 4 foizlik, Afrika esa 75 foizlik o'sishni qayd etdi. Afrika bo'yicha keskin o'sish asosan Misrdagi 35 milliard dollarlik yirik megaproekt hisobiga yuz bergan bo'lsa-da, ushbu loyiha chiqarib tashlanganda ham mintaqada 12 foizlik ijobiy o'sish saqlanib qolgan.

Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilgan FDI hajmi 867 milliard dollar darajasida barqaror saqlanib, global investitsiyalarning 57 foizini tashkil etgan. Bu holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning nisbatan barqaror investitsiya jozibadorligiga ega ekanligini ko'rsatadi. Osiyo, xususan Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Janubiy Osiyodagi Hindiston investitsion faollikni saqlab qolgan bo'lsa, Afrika bo'yicha investitsiyalar 5 foizga kamaygan.

Greenfield investitsiyalar bo'yicha global miqyosda loyiha soni 3 foizga oshib, 19 mingdan ortiqni tashkil etdi. Biroq ularning umumiy qiymati 5 foizga kamaygan bo'lib, bu investorlarning ehtiyotkorlik bilan kichikroq hajmdagi loyihalarga yo'naltirilayotganini anglatadi. Ushbu investitsiyalar asosan yarimo'tkazgichlar, elektr transport vositalari (EV) komponentlari va raqamli iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'lib, davlatlarning sanoat siyosati bilan chambarchas bog'liqdir.

Hududlar kesimida greenfield loyihalar rivojlangan mamlakatlarda 2 foizga oshgan bo'lsa, rivojlanayotgan hududlarda o'zgarishlar notekis bo'lgan. Ayniqsa, Hindiston va BAA kabi davlatlarda investitsiya faolligi yuqori darajada saqlanib qolgan.

FDI bo'yicha eng yirik investitsiya qabul qiluvchi davlat AQSh bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Braziliya, Misr, BAA, Meksika, Hindiston, Indoneziya va Vetnam ham asosiy investitsiya oluvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Greenfield loyihalar Hindiston va BAAda yuqori darajada jamlangan bo'lsa, qo'shilish va sotib olish operatsiyalari (IPF/M&A) asosan rivojlangan va yirik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda to'plangan.

Greenfield investitsiyalar va M&A operatsiyalari o'rtasidagi tafovut global iqtisodiyotda sanoat investitsiyalari va infratuzilma rivojlanishi dinamikalari bir-biridan farqlanayotganini ko'rsatadi. Bu esa jahon investitsiya tizimining murakkablashuvi hamda kapital oqimlarining yangi geoiqtisodiy sharoitlarga moslashayotganidan dalolat beradi.

Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvni kuchaytirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ularni samarali jalb qilish, oqilona taqsimlash va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash esa davlatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos jihati shundan iboratki, u, avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qiluvchi hamda zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik beradi. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotning xomashyo yetkazib beruvchidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga transformatsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bunday investitsiya siyosati sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tishni rag'batlantiradi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida tashkil etilayotgan yangi ishlab chiqarishlar mehnat unumdorligini oshirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, investitsiya siyosatining ushbu ustuvor yo'nalishi milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanishi, uning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

3-jadval

2023-2025-yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (trln. so'm) [12]

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jami	352,1	493,7	591,1
Markazlashtirilgan investitsiyalar	44,8	51,9	62,6
Respublika budjeti	20,3	22,8	28,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1,7	1,9	-
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari	1,6	3,6	2,1
Chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostidagi olingan kreditlar	21,2	23,6	32,5
Markazlashtirilmagan investitsiyalar	307,3	441,8	528,5
Korxonalarining mablag'lari	84,9	87,0	90,3
Aholi mablag'lari	33,3	32,0	37,5
Xorijiy investitsiyalar	84,3	150,5	281,1
Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	22,3	12,7	11,1

Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	82,4	159,6	108,5
--	------	-------	-------

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga asoslangan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bunda qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvorlik berilmoqda.

2023-2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, jami investitsiyalar hajmi 2023-yildagi 352,1 trln. so‘mdan 2025-yilda 591,1 trln. so‘mga yetib, sezilarli darajada oshgan. Bu holat mamlakatda investitsiya faolligining kuchayib borayotganini hamda iqtisodiy o‘shishning investitsion asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar ham ijobiy dinamikani namoyon etib, tahlil qilinayotgan davrda 44,8 trln. so‘mdan 62,6 trln. so‘mgacha oshgan. Ushbu jarayonda davlat budjeti mablag‘lari muhim rol o‘ynab, 20,3 trln. so‘mdan 28,0 trln. so‘mga yetgan. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari dinamikasi esa tebranuvchan xarakterga ega bo‘lib, ayrim yillarda o‘shish, keyingi bosqichda esa nisbiy qisqarish kuzatilgan. Shu bilan birga, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hajmi 21,2 trln. so‘mdan 32,5 trln. so‘mgacha oshib, markazlashtirilgan investitsiyalar tarkibida muhim ulushni egallagan.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar umumiy investitsiyalar tarkibida yetakchi o‘rinni saqlab qolgan holda 307,3 trln. so‘mdan 528,5 trln. so‘mga yetgan. Bu esa iqtisodiyotda xususiy sektorning roli ortib borayotganini va bozor mexanizmlarining chuqurlashayotganini anglatadi. Korxonalar mablag‘lari barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 84,9 trln. so‘mdan 90,3 trln. so‘mga, aholi mablag‘lari esa 33,3 trln. so‘mdan 37,5 trln. so‘mga oshgan.

Alohida ta‘kidlash lozimki, xorijiy investitsiyalar dinamikasi sezilarli darajada o‘shish ko‘rsatgan bo‘lib, 84,3 trln. so‘mdan 281,1 trln. so‘mga yetgan. Bu holat mamlakat investitsiya jozibadorligining oshib borayotganini, xalqaro kapital oqimining faollashayotganini va iqtisodiyotning global moliyaviy tizimga integratsiyalashuv jarayoni kuchayganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar tarkibida ayrim yillarda o‘shish, keyingi bosqichda esa nisbiy qisqarish kuzatilib, tashqi moliyalashtirish strukturasi optimallashtirish jarayoni yuz berayotganini ko‘rsatadi.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hajmining 22,3 trln. so‘mdan 11,1 trln. so‘mga kamayishi esa iqtisodiyotda qarz yukini optimallashtirish va investitsiyalarni ko‘proq o‘z mablag‘lari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish tendensiyasi kuchayayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda investitsiyalar tarkibida markazlashtirilmagan manbalar, xususan xorijiy investitsiyalar ulushining ortishi iqtisodiyotning liberallashtirish, investitsiya muhitining yaxshilanishi va xususiy sektor

faolligining oshishini ko'rsatadi. Bu jarayonlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilab, xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyotida TTXI va portfel investitsiyalar oqimlarining o'zgaruvchan dinamikasi global iqtisodiy tizimning murakkablashib borayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda FDI oqimlarining umumiy qisqarishi, ayrim rivojlangan hududlarda sezilarli pasayishlar va shu bilan birga ayrim rivojlanayotgan mintaqalarda o'sishning saqlanib qolishi investitsiya oqimlarining geoiqtisodiy va institutsional omillarga kuchli bog'liqligini tasdiqlaydi. Bu holat xalqaro kapital harakatlarining endi faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy va strategik omillar bilan ham belgilanayotganidan dalolat beradi.

TTXI va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar ularning milliy iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. TTXI real sektorni rivojlantiruvchi, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi barqaror investitsiya shakli bo'lsa, portfel investitsiyalar ko'proq moliyaviy bozorlar likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi va qisqa muddatli tebranishlarga moyil hisoblanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyotda ushbu ikki investitsiya turini muvozanatli jalb etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati esa iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasiga, yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga hamda sanoatni modernizatsiya qilishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. 2023-2025-yillar davomida investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishi, ayniqsa xorijiy investitsiyalar ulushining keskin ortishi mamlakat investitsiya jozibadorligining kuchayganini va iqtisodiyotning global kapital bozorlariga integratsiyalashuvi jadallashganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, investitsiya tarkibida markazlashtirilmagan manbalar va xususiy sektor ulushining ortib borishi iqtisodiyotning liberallashtirish hamda bozor mexanizmlarining chuqurlashayotganidan dalolat beradi. Xorijiy investitsiyalar oqimining kengayishi esa ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq tashqi moliyalashtirishning tarkibiy optimallashtirish ham muhim bo'lib, qarz mablag'lariga bog'liqlikni kamaytirish tendensiyasi iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatining samaradorligi xorijiy investitsiyalarni oqilona jalb etish, ularni strategik tarmoqlarga yo'naltirish hamda institutsional muhitni yanada takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu omillar uyg'unligi mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Dunning J.H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. – Wokingham: Addison-Wesley, 1993.
2. Krugman P.R., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. – Boston: Pearson, 2009.
3. Sachs J.D. *The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time*. – New York: Penguin Press, 2005.
4. Sugahara S., Ochilov B. The Experience of The Japanese State in Increasing Investment Activity in Uzbekistan. – 2023.// “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ilmiy-ommabop elektron jurnali. 285-291 pages.
5. Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies?// *Journal of Multinational Financial Management*, 12 February 2021. – P.13.
6. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy.// *Journal of Physics: Conference Series*, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.
7. North D. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
8. Vernon R. International Investment and International Trade in the Product Cycle. – *Quarterly Journal of Economics*, 1966. – Vol. 80(2). – P. 190–207.
9. Rodrik D. *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. – Princeton: Princeton University Press, 2007. – 280 p.
10. Solow R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. – *Quarterly Journal of Economics*, 1956. – Vol. 70(1). – P. 65–94.
11. World Investment Report 2025.
12. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb sahifasi.